

IJODIY HIKOYA QILISHGA O'RGATISHNING MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARGA TA'SIRI

Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna
FarDU dotsenti

Maziyayeva Muqaddasxon Esonovna
Farg'ona pedagogika kolleji o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada martabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda ijodiy hikoya qilishga o'rgatishning nazariy asoslari masalalariga ijobiy yondashgan.

Kalit so'zlar: Nutq, ijodiy hikoya,

Bola ijodiy hikoya tuzar ekan, uning mazmunini mustaqil o'ylab toppish, mazmunni tushunarli bo'lishi uchun zaruriy so'zlarni to'g'ri tanlash va ularni mantiqan bir-biriga to'g'ri bog'lay olishi lozim. Yaxshi hikoya yoki ertak tuzish uchun uning kompozitsiyasini (bog'lamini, kulminatsiyasini, yechimini qiziqarli tuza olish, o'zining fikrlarini aniq va ifodali qilib bayon eta olishi kerak. Bola doimiy mashq qilish orqali o'z fikrini bir-biriga bog'lab bayon eta olish va hikoya, ermak to'qiy olishi mumkin. Bu vazifa esa katta va tayyorlov guruhida amalga oshiriladi. Chunki bu yoshdagi bolalarning nutqi grammatik jihatdan to'g'ri shakllangan, lug'ati boy, fikr yuritish doirasi keng, o'z fikrini ketma-ket bog'lab bayon eta olish malakasiga boy hayotiy tajriba ga, xilma-xil hayotiy taassurotlarga ega bo'ladi

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni qayta hikoya qilishga o'rgatish muntazam olib boriladi. Tarbiyachi badiiy asarlarni tanlashda quydagi talablarga amal qilishi kerak; badiiy asar hajmi katta bo'lmasligi, voqealar ketma-ket aniq bayon etilishi, lug'ati bolalar yoshiga mos bo'lishi, gaplarning qurilishi murakkab bo'lmasligi (jumalar qisqa, nutq oddiy, grammatik jihatdan shakllar mavjud bo'lishi kerak.

Bolalar o'qib berilgan asarni qayta hikoya qilar ekanlar, ular tarbiyachining yordamiga muhtoj bo'ladilar (ayniqsa yilning boshida). Bolalar qayta hikoya qilayotganlarida uzoq vaqt to'xtab qoladilar hamda badiiy jumalarni so'zma-so'z aytishga harakat qiladilar va buning natijasida ko'p vaqt yoqotiladi. Bunday holatlar tinglovchilarni zeriktiradi, hikoya qilib beruvchini xafa bo'lishiga olib keladi. Bolalar javob berish vaqtida hayajonlanadilar. Bunday holatlarda tarbiyachi yordam berishi lozim. Shuning bilan birga tarbiyachi bolalarga boshlagan ertak yoki hikoyaning

oxirini o'ylab toppish va oxiriga yetkazishni o'rgatib borishi kerak. Ijodiy hikoya qilishga o'rgatish bolalardan mustaqillikni talab etadi, Bola tarbiyachi tomonidan berilgan ertak yoki hikoyani mazmuni va ketma-ketligini bog'lab, o'zi mustaqil bayon etishni amalga oshirishi lozim bo'ladi. Bu hikoya turi bolalarda ijodiy hayolni rivojlantirib, mustaqil fikr yuritishga yordam beradi. Bola ijodiy hikoya yuritishida muallif sifatida hikoyaning mazmuni va uning mustaqil tanlaydi. Bolalar bu hikoya turi orqali narsa-buyumlarni tasvirlashga, qahramonlarning his-tuyg'ularini, kayfiyatlarini bildirishga, ular bilan bog'langan voqealarni bayon etishga, hikoyaning oxirini qiziq voqea bilan tugallashga o'rganadilar. Ijodiy hikoya tuzishning muvaffaqiyatli chiqishi, tarbiyachining bolalarni qiziqтира olishiga, ularda emotsional kayfiyatni vujudga keltirishiga, ijodiy hayolga ta'sir etishiga bog'liqdir. Ijodiy hikoya tuzishda shuni ham yodda tutish keraki, bolalarni o'rtoqlarini tuzgan hikoyalarini baholashga, hikoyadagi ijobiy va salbiy tomonlarni ko'ra olishga o'rgatish juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. D Yuldasheva, G Abdumuminova. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik asoslari. Центральноазиатский журнал образования и инноваций 2 (3 Part 2), 8-11
2. Yuldasheva D.M. Pedagogical Features Of Mental Development Of Preschool Children. Solid State Technology. Volume: 63 Issue:6 Publication Year:2020. 14221-14225
3. Yuldasheva D.M. Anthropocentric Approach To Children's Speech Study. Section 2: Linguistic Theory, Applied Linguistics. Collection Of Materials Of The International Online Conference. Www.Research-Support-Senter.Som 2020.92-95
4. Yuldasheva D.M. The Methods Of Speech Development Of Preschool Children. Eurasian International Journal Of Multidisciplinary Research(Ijmr). Impact Factor: 7.6.11.November.
5. Юлдашева Д.М. Использование зоонимов в колыбельной песне-«алла», как аспект этнолингвистики. cyberleninka.ru
6. ДМ Юлдашева, Д Асқарова, М Зоҳидова. Ўзбек болалар нутқига доир матнларда лакуна. Academic research in educational sciences 2
7. D Yuldasheva. Anthropocentric approach to children's speech study. Конференции.
8. YD Maxamadaliyeva, M Matmusaeva. On Linguofolkloristic Units. International Journal of Culture and Modernity 11, 169-171

9. YD Maxamadaliyeva, MX Madaminova. Gnoseological Substantiation of Cognitive Development Children. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology 2 (4), 7-11
10. YD Maxamadaliyeva. Use Of Presidential Names In Uzbek Children's Texts. *gospodarka i innowacje*. 22.
11. D Yuldasheva, S Umarova . Maktabgacha Ta'lim Tizimida O'Yinlar Texnologiyasi. Scientific progress 3 (2), 746-751
12. ДМ Юлдашева. Синтактик такропларнинг бадиий-эстетик имкониятлари. Международный журнал/ Искусство слова.